ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BO'LAJAK RUS-TILI O'QITUVCHILARNI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Abduqayumova Nargiza Raimovna,
Termiz davlat universiteti rus tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Bo'lajak rus tili o'qituvchilarini umumiy o'rta ta'lim maktab innovatsion pedagogik faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish metodikasi, o'qituvchilar mehnati mazmuni va xarakterining chuqur tahliliga asoslanadi. Ushbu toifaga mansub o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati to'g'risida yetarli darajada to'liq va obyektiv tasavvurga ega bo'lish uchun unga mos modelni qurish kerak.

Model – bu "har qanday tabiatdagi bir obyekt bo'lib, unga tadqiq etilayotgan obyektni shunday joylashtirish mumkinki, uni o'rganish bu obyekt haqida yangi axborotlar beradi".

Modellashtirish – har qanday tabiatdagi shunday obyektni (modelni) qurish (yoki tanlash) va o'rganish bo'lib, unga tadqiqot etilayotgan obyektni shunday joylashtirish mumkinki, uni o'rganish bu obyekt haqida yangi axborotlar beradi"[1].

Rus tili o'qituvchilari faoliyatini modellashtirishda majmuaviy yondashuv metodikasi qabul qilingan bo'lib, unga "obyektni qarab chiqishda fanlararo bog'liqlik, to'liqlik va darajalilik" prinsiplari xarakterlidir. Bu prinsiplar modellashtirishning real tadqiqot vositalaridan biri hisoblanib, o'qituvchini loyihalashtirilayotgan innovatsion faoliyatining yaxlitligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Modelni yaratish bo'yicha keyingi harakatlarimizni aniqlab olish maqsadida ana shu prinsiplarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Fanlararo bog'liqlik prinsipi obyekt to'g'risida predmetli tasavvur sintezini amalga oshirishni nazarda tutadi, ya'ni mutaxassis-o'qituvchilar innovatsion faoliyatini izohlash ular o'rganadigan jamiyatshunoslik, psixologik-pedagogik, metodik va boshqa fanlarga tayanadi. Biroq innovatsion faoliyatning muhim komponentlari ro'yxatini aniqlashda bu fanlarni oqilona birlashtirmasdan tadqiqotning fanlararo bog'liqligi ta'minlanmaydi. Bu prinsipning asosiy vazifasi ham ana shunda – modelni yaratish maqsadida mutaxassislar – o'qituvchi-predmetchilar o'rganayotgan barcha o'quv fanlarini birlashtirish lozim.

Ikkinchi prinsip (tadqiqotning to'liqligi) obyektni modelda adekvat ifodalashdan kelib chiqadi. Ma'lumki, tadqiqotda to'liqlikning yo'qligi olingan natijaning ishonchsizligini kuchaytiradi. Bu esa undan foydalanish sohasini chegaralab qo'yadi. To'liqlik deganda obyektning tadqiq qilinmagan qirralari tushunilib, tuzilmalangan ko'rinishda uning yaxlitligini mos ravishda ifoda etadi. Tahlilning to'liqligi modelda pedagogik-innovatsion faoliyatning barcha tomonlari qayd etilishining bevosita kafolati sanaladi. Shu holatni hisobga olgan holda o'qituvchi faoliyati ko'rsatkichlari ro'yxati va uning morfologik tarkibi turli usullar yordamida ko'p martalab tekshirish tufayli yetarli darajada to'liq (mutlaq emas, albatta) shakllanadi.[2]

Uchinchi prinsip tadqiq qilinayotgan obyektni o'rganishni har bir darajada obyektning yaxlitligini ifodalashga qodir bo'lgan yana ham umumiyroq va yanada xususiyroq omillar, vaziyatlar, holatlarga ajratishni talab qiladi. Mutaxassis o'qituvchining pedagogik-innovatsion faoliyati modelini yaratishda *ko'p darajalilik* uning barcha bosqichlarida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun bu prinsip negizida mutaxassis-o'qituvchining innovatsion faoliyatini komponentlari ro'yxati, u darajada – umumiy, oraliq va aniq darajadagi komponentlar ro'yxati tuzildi. Binobarin, faoliyat mazmuni har bir bosqichda alohida aks etadi va turli maqsadlarga xizmat qiladi.

Rus tili o'qituvchisini metodik innovatsion faoliyati modelini ishlab chiqishda ikki o'zaro bog'liq va bir-biri bilan taqozolangan obyekt: o'qituvchi shaxsi va uning pedagogik-innovatsion faoliyati e'tiborga olindi. Bunday faoliyatni biz bir tomondan, umumlashtirilgan va yetarli darajada unifikatsiyalangan (bir xilga keltirilgan) fenomen sifatida, boshqa tomondan esa – maktab ta'limining yaxlit umumiy maqsadlarini – o'quvchi yoshlarni mustaqil hayotga va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi talablariga muvofiq ravishda

[1] Sayidahmedov N.S. Voprosi podgotovki studentov k innovatsionnoy deyatelnosti общеobrazovatelnoy shkoli // "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy kasbiy ta'lim muammolari" – Resp. ilmiy anjuman materiallari. – Guliston, GulDU, 20-21- noyabr, 2008.

[2] Zaripova M.K. Bo'lajak o'qituvchilarni innovasion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish: Ped.fan. fal. dok. (PhD) diss... – Termiz, 2022. – 128 b.

mehnatga tayyorlashni amalga oshiruvchi ma'lum doiradagi sub'ektlarga (mansabdor shaxslarga) xos bo'lgan metodik tizim sifatida qaradik. Bu faoliyat bir qator alohida harakatlar (umumiy maqsadga erishish usullari) va o'zaro aloqador komponentlardan tarkib topadi, ularning har biriga mutaxassis – fan o'qituvchisining ma'lum kasbiy funksiyasi mos keladi.

Faoliyatning birinchi turi – "Innovatsion metodik tajribani ko'chirish"[1]ni qarab chiqamiz. Unga umumiy o'rta ta'lim maktabi rus tili o'qituvchilari hal qilishi kerak bo'lgan vazifalar bo'yicha farq qiluvchi faoliyatning uchta sinfi kiritildi.

Birinchi sinflarda rus tili darslarida– "yangilik mazmunini tahlil qilish va baholash"; vazifasi – pedagogik tajribaning yangilik darajasini tahlil qilish va baholashdir. Ikkinchi sinf – "tajribani joriy qilish tahlili va uni baholash"; vazifasi – uni joriy qilish ko'lami bo'yicha axborotlar olish. Uchinchi sinf – "innovatsion takliflarni ko'chirish mexanizmini ishlab chiqish"; vazifasi – yangi harakatlarni egallash bo'yicha ishlanmalar rejasini tuzish.[2]

Faoliyatning ikkinchi turi sifati "rus tili darsida pedagogik, metodik yangiliklarni ishlab chiqish" faoliyatning to'rtta sinfini o'z ichiga oladi. Birinchi sinf "metodika amaliyotini tanqidiy tahlili" bo'lib, uning vazifasi pedagogika nazariyasi va amaliyotida muammoning ishlanganlik darajasini aniqlashdan iborat. Ikkinchi sinf esa "muammoning yechish g'oyalarini qidirish", uning vazifasi mavjud ziddiyatlarni o'rnatish, ularni hal etish usullari va metodlarini tanlashdir. "Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish" uchinchi sinf bo'lib, uning vazifasi loyihalash bosqichlarini ajratish, har bir bosqich maqsadlarini, ularni amalga oshirish vaqtini aniqlashtirish hisoblanadi. Va nihoyat, to'rtinchi sinf – bu "innovatsion loyihalarni baholash", uning vazifasi natijaviylikni baholash sanaladi.

Faoliyatning uchinchi turi "pedagogik tajriba-sinovlar o'tkazish" bo'lib, faoliyatning to'rt sinfini o'z ichiga oladi. Birinchi sinf – "maqsadlarning qo'yilishi"; vazifa – sinovning asosiy vazifalarini bajarish; ikkinchi sinf – "rejalashtirish" - tadqiqot dasturini ishlab chiqish, asosiy savolni o'rtaga tashlashni nazarda tutadi. Uchinchi sinf – "o'tkazish"ning vazifasi o'tkazilgan tadqiqot asosida zaruriy metodlardan foydalanib, ilgari surilgan taxminni isbotlovchi yangi ilmiy axborotni qo'lga kiritishdir. "Natijalarni tahlil qilish va baholash" deb nomlanuvchi to'rtinchi sinfning vazifasi xulosalar chiqarish va takliflar berishdan iborat.

"Innovatsion metodik tajribani uzatish" deb ataluvchi faoliyatning to'rtinchi turi ham faoliyatning to'rtta sinfini o'z ichiga oladi, har bir sinf aniq vazifalarga ega. Agar birinchi sinf, ya'ni "maqsadlarning qo'yilishi" yangi pedagogik g'oyalarni uzatishning asosiy vazifalarini ajratishni nazarda tutsa, ikkinchi sinf – "vazifalarni rejalashtirish" yangiliklarni uzatish uchun harakatlar tarkibi va ketma-ketligini aniqlash, kalendar reja-grafiklarni ishlab chiqishdir. "Uzatish jarayoni" deb nomlanuvchi uchinchi sinf samarali didaktik jarayonni amalga oshirish, ya'ni o'quvchilarning maqsadga yo'naltirilgan o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishni talab qiladi. So'nggi to'rtinchi bosqich – "tahlil va baholash" - uzatish harakatini nazorat qiladi va baholaydi.

Rus tili o'qituvchi-innovator mehnati mazmunining tahlili, kutilgandek, innovatsion metodik tajribani ko'chirish va uzatish, ya'ni o'quv-tarbiya jarayoni va uni tayyorlashga ko'p vaqt sarflanishini ko'rsatdi. (I va IV turlar - 68,3 foiz). Biroq pedagogik yangiliklarni ishlab chiqishga o'qituvchi ish vaqtining deyarli uchdan bir qismi ketadi (II tur – 30,9 foiz). Pedagogik sinovni o'tkazishda texnik va metodik ta'minotga va uning natijalarini tahlil qilishga ko'p vaqt sarflanadi (6,2 foiz). Bu haqiqat, albatta. To'g'ri, tajriba-sinov sinfini avvaldan tayyorlash va tadqiqotni o'tkazish bosqichlarini qaytadan yaxshilab ishlash hisobiga vaqt sarfini sezilarli darajada qisqartirish mumkin (zarur ham).

Yuqoridagi firlarga asoslanib tadqiqot jarayonini ikki bosqichdan iborat ko'rinishda ifodalash maqsadga muvofiq sanaladi:

Tadqiqot jarayonini ikki bosqichdan iborat ko'rinishda ifodalash mumkin:

bilimlarning standartlashtirilmagan ro'yxatini bo'laklarga ajratish;

saralab olingan bilimlarni tizimlashtirish, ularni to'liqlik va reprezentativlikka tekshirish.

Bilimlarni bo'laklarga ajratishda tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan metodika yordamida olingan empirik material asos bo'ldi. Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishda o'qituvchi tomonidan foydalaniladigan bilimlarni ajratib oldik. Bu bilimlar to'liqlikka tahlil qilindi.

Saralab olingan bilimlarni tizimlashtirish umumlashmali darajalar yordamida amalga oshirildi. Bu darajalarning birinchi va ikkinchisi turli fan o'qituvchilariga zarur bilimlarni tanlash uchun unifikatsiyalashgan (bir xilga keltirilgan) hisoblanadi, innovatsion sohadagi bilimlarni umumlashtirishning uchinchi va to'rtinchi darajasi esa o'qituvchi tayyorgarligining yo'nalishiga qarab farq qiladi.

[1] Tojiev M va b. Pedagogik texnologiya: Zamonaviy ilmiy-nazariy asosi. – Toshkent: Ishonch – M.S, 2008. – 184 b.

[2] Umumlashtirishning ikkinchi darajasida nazariyalar voqelikning aniq bir sohadagi qonuniyatlarni ochib berishiga qarab ajratildi. Binobarin, bilimlarning ikkinchi darajasi oldindan ajratib ko'rsatilgan sohalar bo'yicha bilimlarning aniq doirasi bilan ifoda etilgan. Sayidahmedov N.S. Pedagogikada yangicha fikrlash. – Toshkent: Istiqlol, 2002. – 62 b.

Bilimlarni umumlashtirishning birinchi darajasida voqelikning turli sohalaridagi qonuniyatlar va ahamiyatli aloqalar to‘g‘risida yaxlit tasavvur uyg‘otuvchi, umumiy belgi bilan birlashgan nazariyalar to‘plami tanlandi. Shunday qilib, ajratib olingan jami bilimlar yig‘indisi bu darajada quyidagilar bilan ifodalangan:

a) *metodologik bilimlar sohasi*, bunga innovatsiyalar qonuniyatlarini ochib beruvchi nazariyalar, pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish metodlari kiradi;

b) *psixologik-pedagogik bilimlar sohasi* innovatsion jarayonlarning qonuniyatlarini ochib beruvchi va tushuntiruvchi nazariyalarni o‘z ichiga oladi.

v) *metodik bilimlar sohasi* pedagogik yangiliklarni o‘qitish jarayoniga joriy qilish ketma-ketligini ochib beruvchi va ularning natijaviyligini baholash borasidagi nazariyalar to‘plamini birlashtiradi.

g) *maxsus bilimlar sohasi*, alohida olingan fan uchun pedagogik innovatsiya xususiyatlarini tushuntiruvchi nazariyalar to‘plamidan iborat.

Resume: Methodology for improving the preparation of future Russian-language teachers for innovative pedagogical activities of the General Secondary Education School, rounding method of innovative activities, model of innovative activities, methodology for achieving the established maxad using optimal (most optimal) methods for short-term effectiveness of innovative activities, ways are provided. In order to have a sufficiently complete and objective idea of the professional-pedagogical activity of a teacher belonging to this category, it was recommended to build a suitable model for him.

Резюме: Методика совершенствования подготовки будущих учителей русского языка к инновационной педагогической деятельности общеобразовательной школы, метод округления инновационной деятельности, модель инновационной деятельности, методика достижения поставленной цели, пути повышения эффективности инновационной деятельности в краткосрочной перспективе с помощью оптимальных (оптимальных) методов. Для того чтобы иметь достаточно полное и объективное представление о профессионально-педагогической деятельности педагога, относящегося к данной категории, было рекомендовано построить для него соответствующую модель.